

**MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY-
ESTETIK SIFATLARNI QO‘G‘IRCHOQ TEATRI VOSITASIDA
SHAKLLANTIRISHNING MAZMUN VA MOHIYATI**

D.Baxtiyorova

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotida katta yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirishda qo‘g‘irchoq teatri vositasining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Qo‘g‘irchoq teatri orqali bolalarning ma’naviy dunyosini boyitish, ularni go‘zallikni anglash va qadrlashga o‘rgatishning samarali metodlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, ularning jamiyatda to‘laqonli shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlar va duch keladigan muammolar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, qo‘g‘irchoq teatri, maktabgacha yoshdagi bola, pedagogik vosita, ijtimoiy-axloqiy rivojlanish.

Abstract: This article discusses the role and importance of the puppet theater medium in the formation of moral and aesthetic qualities in older children in a preschool educational organization. Effective methods of enriching the spiritual world of children through puppet theater, teaching them to understand and appreciate beauty are analyzed on a scientific basis. The necessary conditions and problems encountered for their formation as full-fledged individuals in society are also considered.

Keywords: Moral education, aesthetic education, puppet theatre, preschool child, pedagogical tool, socio-moral development.

Аннотация: В статье освещаются роль и значение кукольного театра в формировании нравственных и эстетических качеств у детей старшего возраста в условиях дошкольной образовательной организации. Научно проанализированы эффективные методы обогащения духовного мира детей посредством кукольного театра, обучения их пониманию и оценке прекрасного. В нем также рассматриваются необходимые условия и проблемы, с которыми им приходится сталкиваться, чтобы стать полноценными личностями в обществе.

Ключевые слова: Нравственное воспитание, эстетическое воспитание, кукольный театр, дошкольник, педагогическое средство, социально-нравственное развитие.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini

oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi: Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qaroriga muvofiq 1-ILOVA V bobida. Maktabgacha ta’lim tizimida uzlusiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari uchun tayyorlanadigan spektakllar, kuy-qo‘shiq va raqlar, turli teatrlashtirilgan tomoshalar, sahna ko‘rinishlari, milliy o‘yinlar ssenariylarini ishlab chiqish kerakligi keltirib o‘tilgan.

Zamonaviy ta’lim tizimi bolalarning nafaqat bilim olishiga, balki ularning shaxsiy kamolotiga, axloqiy va estetik tarbiyasiga alohida e’tibor qaratmoqda. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri inson shaxsining shakllanishida hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda bola atrof-muhitni o‘rganadi, insonlar bilan muloqot qilishni, hissiy tajriba orttirishni boshlaydi. Ana shu jarayonlarda axloqiy-estetik tarbiya vositasi sifatida qo‘g‘irchoq teatrining o‘rni beqiyosdir.

Qo‘g‘irchoq teatri bolalarning estetik didini shakllantirish, ularning ijtimoiy xulqini tarbiyalash, emotsiyonal va muloqot malakalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. U nafaqat ko‘ngilochar vosita, balki chuqur tarbiyaviy imkoniyatlarga ega bo‘lgan pedagogik texnologiyadir. Maktabgacha katta yoshdagagi bolalarda aynan shu davrda axloqiy-estetik fazilatlarni shakllantirish muhim bo‘lib, bu jarayonda qo‘g‘irchoq teatri imkoniyatlaridan oqilona foydalanish dolzarb masalalardan biridir.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi qonuni shular jumlasidandir.

Maktabgacha yoshdagagi bolalar tarbiyasida axloqiy va estetik sifatlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu yosh davr bolalarning shaxsiyati, dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlari asos solinadigan davr hisoblanadi. Shu bois, bolalarda to‘g‘ri axloqiy qadriyatlarni singdirish va estetik didni rivojlantirish tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Axloqiy-estetik sifatlar bolalarning go‘zallikni anglashlari, boshqalar bilan munosabatda bo‘lishlari, mehr-muhabbat va hurmat kabi ijtimoiy qadriyatlarni o‘zlashtirishlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Axloqiy-estetik tarbiyaning mazmuni va yosh xususiyatlari bilan bog‘liqligi axloqiy-estetik tarbiya — bu bolaning ongli ravishda yaxshi va yomonni ajrata olishi, go‘zallikni qadrlashi, o‘zini tutish madaniyatiga ega bo‘lishi bilan bog‘liq murakkab

pedagogik jarayondir. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar (5–7 yosh) ijtimoiy rollarni tushuna boshlaydi, empatiya hissi shakllanadi, ularning obrazli tafakkuri faollashadi. Shu sababli bu yoshda estetik sezuvchanlik va axloqiy ongni shakllantirish uchun badiiy vositalar, xususan qo‘g‘irchoq teatridan foydalanish juda samaralidir.

Qo‘g‘irchoq teatri vositasida quyidagi pedagogik maqsadlarga erishish mumkin:

- Didaktik ta’sir: Sahna orqali bilim, tushuncha va qadriyatlar singdiriladi.
- Emotsional sezgirlikni rivojlantirish: Qo‘g‘irchoq teatrida musiqiy vositalar, mimika, harakat va ranglar orqali bolalar hissiyotlar olamiga kiradi.
- Shaxsiy identifikatsiya: Bola o‘zini ijobiy qahramonlar bilan taqqoslab, ularning fazilatlarini o‘zlashtirishga intiladi.
- Nutqni rivojlantirish: Sahnadagi muloqotlar orqali bolalarning lug‘at boyligi va og‘zaki nutqi kengayadi.

Axloqiy-estetik mavzularni o‘z ichiga olgan ertak yoki hikoya tanlanadi (masalan, “Sadoqatli do‘st”, “Halollik g‘alaba qiladi”). Bolalar rollarni o‘zlashtirib, o‘zlariga xos ijro usullarini qo‘llashadi. Bu ularning fantaziyasini va ijodkorligini rivojlantiradi. Tomoshadan so‘ng bolalar bilan axloqiy savollar muhokama qilinadi: Qaysi qahramon to‘g‘ri ish tutdi? Nima uchun? Bu orqali refleksiya shakllanadi. Har bir sahna asosida axloqiy va estetik qadriyatlar mustahkamlanadi.

O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida qo‘g‘irchoq teatridan foydalanish tajribalari mavjud. Pedagoller teatrga tayyorgarlik jarayonida bolalarning yoshi, qiziqishlari va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, turli mavzularda qo‘g‘irchoqli sahnalar tayyorlaydilar. Tavsiya etiladi:

- Haftasiga kamida bir marta qo‘g‘irchoq teatri tashkil etish;
- Ijtimoiy mavzularni aks ettiruvchi ssenariylardan foydalanish;
- Bolalarni tomoshabin emas, ijodiy ishtirokchi sifatida jalb qilish.

Kasbiy axloq fanda, xususan, ijimoiy ishda ikki tomonlama anglanadi. Bir tomonidan, bu kasbiy faoliyat davomida kishilararo munosabatlarga tegishli xususiyat beruvchi va kasb mohiyatiga mos qadriyatlar, xulq-atvorning axloqiy tamoyillari va me’yorlari jamlanmasi borasidagi fan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, kasbiy axloq – bu ijtimoiy ishning bosh qadriyatlari va g‘oyalari doirasida ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy uyg‘unligidir. Ijtimoiy ish xodimi kasbiy axloqining ma’naviy kengligi – bu og‘ir xayotiy vaziyatdagi insonga “inson – mijozlarning ijtimoiy muhiti” tizimini o‘zgartirish orqali ijtimoiy yordamni ta’minalash jarayonida yuzaga keluvchi munosabatlardir. Shu bilan birga, shaxsiy va umumjamiyat manfaatlariga erishish jarayonida ijtimoiy ish xodimi o‘z xamkasblari, boshqa davlat va nodavlat tashkilotlar bilan qonun doirasida munosabatlarni o‘rnatishi zarur.

Qo‘g‘irchoq teatri maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida samarali vosita sifatida keng qo‘llaniladi. Qo‘g‘irchoq teatri nafaqat bolalarning tasavvurini rivojlantiradi, balki ularning hissiy dunyosini boyitadi, axloqiy qadriyatlarni

o‘rgatishda o‘yin va ko‘ngilochar shaklda ta’sir ko‘rsatadi. Qo‘g‘irchoq orqali namoyish etiladigan voqealar, qahramonlarning xulq-atvori bolalarda yaxshi va yomonni ajratish, mehr-oqibat, do‘slik, halollik kabi axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Shuningdek, qo‘g‘irchoq teatrı bolalarning nutqini rivojlantirish, ijodkorlik qobiliyatlarini oshirish, jamoaviy ishga o‘rgatish kabi tarbiyaviy vazifalarni ham bajaradi. Bu usul orqali bolalar o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etishni o‘rganadilar, boshqalar bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Shu bois, maktabgacha ta’lim muassasalarida qo‘g‘irchoq teatrı axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Mazkur mavzu dolzarbligi shundaki, bugungi kunda bolalarning axloqiy-estetik tarbiyasini samarali tashkil etish uchun yangi, qiziqarli va ta’sirchan metod va vositalarni izlash zarur. Qo‘g‘irchoq teatrı esa aynan shunday vositalardan biri bo‘lib, u bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Shu bois, maktabgacha katta yoshdagи bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni qo‘g‘irchoq teatrı orqali shakllantirishning mazmuni va mohiyatini o‘rganish, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar ahamiyatlidir.

XULOSA

Maktabgacha katta yoshdagи bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni qo‘g‘irchoq teatrı vositasida shakllantirish tarbiyaviy jarayonning muhim qismi hisoblanadi. Qo‘g‘irchoq teatrı bolalarning hissiy va aqliy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatib, ularning axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirishida samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu teatr orqali bolalar yaxshi va yomonni ajratishni, mehr-muhabbat, do‘slik, halollik kabi axloqiy-estetik fazilatlarni o‘rganadilar. Qo‘g‘irchoq teatrı bolalarning tasavvurini rivojlantiradi, nutq madaniyatini oshiradi, ijodkorlik va muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, u bolalarda jamoaviy ishga tayyorlik, boshqalar bilan hamkorlik qilish qobiliyatlarini mustahkamlaydi. Bu esa ularning ijtimoiy muhitga moslashishida muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda axloqiy-estetik tarbiyani samarali tashkil etish uchun qo‘g‘irchoq teatrı kabi interaktiv va qiziqarli metodlardan foydalanish zarur. Bu usul bolalarning diqqatini jalg etadi, ularni tarbiyaviy jarayonga faol jalg qiladi va o‘rganishni yanada samarali qiladi. Shunday qilib, maktabgacha katta yoshdagи bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni qo‘g‘irchoq teatrı orqali shakllantirish nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki jamiyatda ijobiy axloqiy muhit yaratishga ham xizmat qiladi. Ushbu metodni yanada rivojlantirish va keng joriy etish maktabgacha ta’lim sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaeva M. (2020). Maktabgacha ta’limda badiiy estetik tarbiya. – Toshkent: O‘qituvchi.
2. Karimova N. (2019). Bolalar teatrining pedagogik asoslari. – Samarqand: SamDU nashriyoti.
3. G‘ulomova Z. (2021). Maktabgacha yoshdagи bolalarni tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o‘rni. – Buxoro: Ilm ziyo.
4. Shodiyeva R. (2018). Estetik tarbiyaning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan.
5. Vygotsky L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press.
6. Smilansky S. (1990). Sociodramatic Play: Its Relevance to Behavior and Development. – New York: Teachers College Press.